


Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Bugungi kunda xizmatlar sohasi Farg'ona viloyati iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, Farg'ona viloyatida 2020-yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3 035,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur`atlari hajmi 108,1 % ni tashkil etdi.

Farg'ona viloyatida mart holatiga ko'rsatilgan xizmatlarining xajmi va o'sish sur`atlari.




2020-yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 551,5 mlrd. so'mga oshdi.

**2020-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	3 035,8	108,1
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	177,7	118,5
moliyaviy xizmatlar	519,7	138,1
transport xizmatlari	595,6	102,1
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	560,9	105,1
yashash va ovqatlanish xizmatlari	69,9	98,8
savdo xizmatlari	963,3	103,3
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	88,1	102,0
ta'lim sohasidagi xizmatlar	120,4	91,8
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	60,4	120,7
ijara xizmatlari	80,1	104,0
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	92,2	106,8
shaxsiy xizmatlar	156,2	102,3
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	33,8	106,6
boshqa xizmatlar	78,4	100,5


Eng yuqori o'sish suratlari moliyaviy xizmatlar (138,1%), sog'liqni saqlash sohasidagi (120,7%), aloqa va axborotlashtirish xizmatlar (118,5%), kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (106,8%) kabi xizmat turlarida qayd etildi.

2020-yil yanvar-mart oylarida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm.




Joriy yilning yanvar-mart oylarida eng yuqori hajm savdo xizmatlarida 963,3 mlrd. so'm, transport xizmatlarida 595,6 mlrd. so'm, moliyaviy xizmatlarda 519,7 mlrd. so'm, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida 177,7 mlrd. so'mni tashkil etganini ko'rish mumkin.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, %




2020-yil yanvar-mart oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi Farg'ona viloyatida 69,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shundan, yashash bo'yicha xizmatlar 7,8 mlrd. so'm, oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 62,1 mlrd. so'mni tashkil etgan.

2020-yil yanvar-mart oylarida xizmatlar tarkibi (jam'i hajmga nisbatan, %)




Xizmatlar tarkibida eng katta ulushlarni savdo xizmatlari (31,7 %), transport xizmatlari (19,6 %), moliyaviy xizmatlar (17,1 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,9 %), shaxsiy xizmatlar (5,2 %) hamda ta'lif sohasidagi xizmatlar (4,0 %) tashkil etadi.

2020-yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan transport xizmatlari tarkibi, %



2020-yil yanvar-mart oylarida transport xizmatlari hajmi Farg'ona viloyatida 595,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shundan, avtotransport xizmati 560,9 mlrd. so'mni, jami transport xizmatlarining 94,2 % ni tashkil etadi.

2020-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %




Xizmatlar sohasining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish suratlari moliyaviy xizmatlar (138,1 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (120,7 %) aloqa va axborotlashtirish xizmatlar (118,5 %), hamda me'morchilik sohasidagi xizmatlar (106,6 %) hissasiga to'g'ri keladi.

**2020-yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur`ati, %
Farg'ona viloyati	3 035,8	108,1
Farg'ona sh.	1 445,3	113,4
Qo'qon sh.	385,2	104,2
Quvasoy sh.	46,4	102,1
Marg'ilon sh.	291,3	103,1
Oltiariq t.	74,7	102,2
Qo'shtepa t.	44,8	104,5
Bag'dod t.	61,2	106,0
Buvayda t.	61,5	103,2
Beshariq t.	65,0	105,8
Quva t.	66,1	102,5
Uchko'prik t.	81,7	105,8
Rishton t.	57,4	103,2
So'x t.	25,6	105,7
Toshloq t.	59,3	103,7
O'zbekiston t.	67,7	103,5
Farg'ona t.	80,0	102,0
Dang'ara t.	56,3	103,3
Furqat t.	29,0	105,3
Yozyovon t.	37,3	102,9

2020-yil yanvar-mart oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'atlari Farg'ona (113,4 %), shahrida va Bag'dod (106,0 %), Uchko'prik (105,8 %) va Beshariq (105,8 %) tumanlarida qayd etildi.

2020-yil yanvar-mart oylarida Farg'ona viloyatida jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi (jami hajmga nisbatan %)



2020-yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmiga nisbatan eng yuqori ulushni Farg'ona (47,6 %), Qo'qon (12,7 %) va Marg'ilon (9,6 %) shaharlarida hamda Uchko'prik (2,7 %), Farg'ona (2,7 %) tumanlarida qayd etildi.

Xizmatlari sohasi statistikasi bo'limi

71-230-87-28